

## TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALIНАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
ДОШКОЛЬНОГО И  
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНЯ ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫLANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHINGSCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTANO'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligida 2014-yil  
19-dekabrda 0055-raqam  
bilan qayta ro'yxatga olingan.2023-yil.  
12-son.

## Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA  
Dilshod KENJAYEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Yorqinjon ODILOV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Baxtiyor DANIYAROV  
Abdurahim NOSIROV  
Tolib ENAZAROV  
To'liqin SAYDALIYEV  
Ravshan JOMONOV  
Zulxumor MIRZAYEVA  
Qozoqboy YO'LDOSHEV  
Tajixon SABITOVA  
Salima JUMAYEVA  
Nilufar NAMOZOVA  
Qayum BAYMIROV  
Adiba DAVLATOVA  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinbosari)

## Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

## Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

## Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Nargis BOBODJANOVA

## Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Navoiy ko'chasi 30-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@umail.uz  
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uzJurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til  
va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi  
shart.Jurnalda nashr etilgan maqolalarda muallif-  
larning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kel-  
maydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilin-  
maydi va muallifga qaytarilmaydi.Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tas-  
diqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.Bosmaxonaga. 2023.21.12. da topshirildi. Of-  
set usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8.  
Shartli bosma tabog'i 6,0. "Arial" garniturasini. 10,  
11 kegl. "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent  
sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.  
Buyurtma \_\_\_ Adadi 2420 nusxa. Bahosi ke-  
tilishgan narxda.

## MUNDARIJA

<b>Baxtiyor Mengliyev.</b> Badiiy asar tahliliga sistemaviy yondashuv .....	3
<b>Zilola Salisheva.</b> Monologik nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda noan'anaviy dars shakllarining o'rni .....	6
<b>Gulnoz Komilova.</b> Ingliz tili mashg'ulotlarida katta va kichik guruhlar bilan ishlashning ahamiyati .....	8
<b>Shaxlo Xidoyatova.</b> Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogning o'rni .....	10
<b>Hushnoza Abduvohidova.</b> Ingliz va o'zbek tillarida qishloq xo'jaligiga oid birikmalarning qiyosiy tahlili .....	12
<b>Aisafar Murtazayeva.</b> Nutq kompetensiyalarini rivojlantirishda lingvodidaktikaning ahamiyati .....	14
<b>Iroda Mamarajabova.</b> "Vaqf" konseptiga oid birliklarning tarixiy tadqiqi .....	15
<b>Gulmira Turdiyeva.</b> Ijobiy his-hayajonni ifodalovchi leksemalarning semantik tasnifi .....	17
<b>Elyor Imomov.</b> Prerequisites for the emergence of professional lexis .....	19
<b>G'ofir Hamroyev.</b> Ko'rib tushunish – kasbiy malakani rivojlantiruvchi muhim ko'nikma .....	20
<b>Muhammadjon Ergashev.</b> Terminologik lug'atlar yaratishning asosiy masalalari .....	23
<b>To'liqin Tog'ayev.</b> Til siyosati va tili rejalashtirish tushunchalari .....	25
<b>Maftunaxon Ubaydullayeva.</b> Turli tizimli tillarda "gender" atamasining qo'llanilishi .....	27
<b>Obodon Adizova.</b> Fransuz va o'zbek to'y marosimlari turlari, mohiyati va xususiyati .....	28
<b>Saodat Shamaqsudova.</b> Ilmiy-ommabop asarlarning lisoniy va uslubiy xususiyatlari .....	30
<b>Xurshida Xamrakulova.</b> Bolalarga atab aytilgan qo'shiqlarning xususiyatlari .....	32
<b>Feruza Sultonqulova.</b> Usmon Azimning tanosib san'atidan foydalanish mahorati .....	34
<b>Rayhon Ergasheva.</b> Sirojiddin Sayyid she'riyatida Alisher Navoiy va Bobur siyмосi .....	35
<b>Ro'zixon Usmonova.</b> Jahon adabiyotida II jahon urushi manzaralari .....	36
<b>Rayhona Narziqulova.</b> Fentezi janrining lisoniy ifoda vositalari .....	38
<b>Yorqin Nurmatov.</b> Some aspects of translation of Chinese medical terms .....	40
<b>Odina Ahmadjonova.</b> Kompetensiya, kompetentlik tushunchalari, ilmiy sharhi va mohiyati .....	42
<b>Mehrinisa Sulaymanova.</b> O'zbek va qirg'iz xalqining taqinchoqlar bilan bog'liq magik-fetishistik qarashlarining kelib chiqishi asoslari .....	43
<b>E'tiqodxon Ataqlulova.</b> "Sart" so'zi atrofidagi maqolalarda polemikaning namoyon bo'lishi .....	45
<b>Malika Narzullaeva.</b> Classification of academic words found in the works of researchers: a literature review .....	46
<b>Mashhura Saydaliyeva.</b> Gapiirish nutq faoliyati turi va malaka sifatida .....	47
<b>Erkin Raxmonov.</b> Ajib muammoli adabiy usul .....	Muqovoning 3-beti
<b>Irina Morozova.</b> Лингвокультурологический аспект в обучении русскому языку как иностранному .....	49
<b>Гульшод Хамраева.</b> Лексико-стилистическая и морфолого-стилистическая парадигма наречий русского языка .....	51
<b>Эльвира Минибаева.</b> Способы образования слов .....	52
<b>Саодат Юлдашева.</b> Роль и значение русского языка в современном обществе .....	53
<b>Саодат Магдиева.</b> Притчевые элементы в пьесе «нравственного эксперимента» А.Дударева «Рядовые» .....	55
<b>Акбар Джуманов.</b> Поэзия периода независимости .....	57
<b>Феруза Жумаева.</b> Частеречная транспозиция в русском и узбекском языках: конъюнкционализация .....	59
<b>Ольга Калинина.</b> Использование новых методов в изучении русского языка в вузах .....	62
<b>Комилхон Ходжаев.</b> Концепции верности и измены в художественной литературе .....	64
<b>Сурайё Хамраходжаева.</b> Методическое обеспечение развития умений креативной письменной речи на основе исследованных теоретических положений и их апробация в ходе опытного обучения .....	68
<b>Дильфуза Эргашева.</b> Семья и семейные ценности в творчестве Л.Улицкой .....	70
<b>Азиза Бедилова, Саодат Исмаилова.</b> Метод проектов как развитие креативности у студентов .....	72
<b>Амина Атабекова.</b> Использование технологии педагогических мастерских при обучении русскому языку будущих дипломатов и политологов .....	76
<b>Анатолий Лиходзиевский.</b> «Он говорил о временах грядущих...» .....	78
<b>Гулбахор Хаджикурбанова.</b> Языковые тенденции среди молодежи .....	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫLANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika  
fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini  
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

## “DIREKTORLAR KENGASHI” A’ZOLARI UCHUN SEMINAR-TRENING BO’LIB O’TDI

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumta’lim maktablari faoliyatini yanada rivojlantirish hamda ta’lim muassasalarining zamonaviy boshqaruv shakli bo’lgan “Direktorlar kengashi” a’zolari uchun seminar-trening tadbiri bo’lib o’tmoqda.

Tadbirdan asosiy maqsad, maktab ta’limi tizimi boshqaruvida jamoatchilik rolini hamda “Direktorlar kengashi” faoliyati samaradorligini oshirish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, Kengash a’zolarining kasbiy salohiyatini yuksaltirishdan iboratdir.

Seminar-treningda Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri Hilola Umarova ishtirok etdi hamda “Direktorlar kengashi” faoliyatini yo’lga qo’yishdan ko’zlangan maqsadlar, kutilayotgan natijalar, uning ta’lim tizimini samarali, ochiq va shaffof tarzda tashkil etishdagi o’rni va ahamiyati haqida batafsil to’xtalib o’tdi.

Ta’kidlanganidek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-79-son Farmoniga muvofiq, Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida eng tajribali umumiy o’rta ta’lim muassasalari direktorlaridan iborat bo’lgan “Direktorlar kengashlari” tuzilgan.

Tadbirda respublikamizning turli hududlarida tashkil qilingan “Direktorlar kengashi”ning 134 nafar a’zosi ishtirok etdi.

Aytish lozimki, joriy etilayotgan yangi tartibga ko’ra, umumiy o’rta ta’lim muassasalari direktorlarini lavozimiga tayinlash “Direktorlar kengashi” tavsiyasiga asosan amalga oshiriladi. O’quv seminar-treningdan maqsad ham mazkur jarayonlarga “Direktorlar kengashlari” a’zolarini tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini oshirishdan iborat.

Seminar davomida vazirlikning mas’ul xodimlari hamda malakali trenerlar tomonidan qator mavzularda seminar-treninglar olib borildi. Jumladan, “Direktorlar kengashi”ning maqsad va vazifalari, “Ta’limda liderlik-muammolar va yechimlar”, “Maktablarda ta’lim sifatini ta’minlashda maktab direktorining roli”, “Direktorlar kengashi” faoliyatini tashkil etish tartibi, “Maktablarda moliyaviy faoliyatni tashkil etish tartibi”, “Mehnat munosabatlari va mehnat qonunchiligi talablari”, “Direktorlar maktabi: ta’limda liderlarni tayyorlashda zamonaviy yondoshuv ta’lim muassasalarini samarali boshqarish”, “Nomzodlarni tanlab olish psixologiyasi”, “Mehnat munosabatlari va mehnat qonunchiligi talablari” kabi mavzulardagi ma’lumotlar, tavsiyalar mashg’ulot ishtirokchilarida katta tassurotlar qoldirdi.



“Direktorlar kengashi” Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri buyrug’i asosida joylardagi eng tajribali umumiy o’rta ta’lim muassasalari direktorlaridan iborat tarkibda tuziladi. U umumiy o’rta ta’lim muassasalari direktorlarini lavozimiga tayinlash bo’yicha tavsiya beruvchi maslahat organidir. Kengash tavsiyalari vazirlikning hududiy boshqarmalar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

“Direktorlar kengashi” umumiy o’rta ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonlarida samarali boshqaruvni amalga oshirish, me’yoriy-hujjatlarga rioya qilinishi monitoringini olib borish va tegishli takliflar ishlab chiqishni tashkil etadi.

Kengash o’z faoliyatini jamoatchilik asosida yuritadi va oshkoralik tamoyiliga amal qiladi, faqatgina Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligiga to’g’ridan-to’g’ri hisob beradi.

Kengash a’zolari soni hududdagi umumiy o’rta ta’lim muassasalari sonidan kelib chiqqan holda direktorlar orasidan 7 nafardan 11 nafargacha etib belgilanadi.

Shu o’rinda alohida ta’kidlash kerakki, keyingi yillarda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan direktorlarning kasbiy malakalarini oshirishga ham katta e’tibor berilmoqda. Jumladan, joriy yilda “Direktorlar uchun maktablarni rivojlantirish dasturi” doirasida sara-lab olingan bir guruh soha vakillari Buyuk Britaniyaning Portsmut universitetida malaka oshirib qaytishdi.

Trening tadbirlari davomida mazkur maktab direktorlari va mutaxassislar o’z safar taassurotlari va Angliya ta’lim tizimi, ingliz maktablari faoliyati haqida ishtirokchilarga so’zlab berishdi.

“Direktorlar kengashi” a’zolari uchun o’tkazilayotgan o’quv seminar-trening tadbirlari joriy yilning 16-dekabriga qadar davom etadi.

**Laylo RUSTAMOVA,**  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Axborot xizmati

“Ingliz, italyan va o‘zbek folklor matnlarida genderning til vositalarida ifodalanishi” mavzusida lingvistik tadqiqot olib borgan M. Abduvaxobovning bayon etishicha, gender tadqiqotlariga roman tillaridan ko‘ra german tillarida ko‘proq e‘tibor qaratilgan [4: 15]. Shuningdek, u aynan ingliz tili doirasida “gender” terminining vujudga kelishiga ikki qarama-qarshi jinsni bildiruvchi maxsus kategoriyani shakllantirish sabab bo‘lgan, deya taxmin qiladi. Ammo hozirda jamiyatshunoslar tomonidan “jins” va “gender” tushunchalari aynan ingliz tilida bir-biriga zid hisoblanmoqda. M. Abduvaxobova sotsiomadaniy hodisa sifatida shakllanayotgan “gender” termini haqida firka bildirar ekan, uning vujudga kelishi “biologik jins” bilan bog‘liq ekanligini yozadi [4: 15].

“Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy tipologik tadqiqi” mavzusida ilmiy izlanish olib borgan o‘zbek tilshunosi G. Ergasheva gender terminining qo‘llanish xususiyatlari haqida alohida to‘xtalib o‘tadi. Uning fikriga ko‘ra, gender termini tilshunoslikka ijtimoiy fanlar sohasidan kirib kelgan [3: 30]. U o‘z lingvistik tadqiqotlarida “gender” termini qo‘llanilishi yuzasidan qiyosiy tahlillar terminologik adekvatlik tamoyiliga amal qilgan holda olib borilganini qayd etadi: *Har ikki tilda gender bir vaqtning o‘zida shaxsning ijtimoiy va madaniy shartlashgan erkaklik va ayollik xususiyatlarini o‘zlashtirish jarayoni va natijasini ko‘rsatuvchi tushuncha sifatida talqin qilinadi* [3: 30].

Yuqoridagi ilmiy nashrlarni o‘rganib chiqib shuni aytish mumkinki, muayyan terminning bir necha tillarda qo‘llanish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan avval atamaning adekvatligiga e‘tibor berish lozim.

Ingliz tilida biologik jins va ijtimoiy gender uchun alohida terminlar mavjud bo‘lib, kitobxonlarning barchasi buni farqlay oladi. Ya‘ni, biologik jins uchun “sex” leksemasi ishlatilsa, ijtimoiy sohada esa dastlab ingliz tiliga grammatik kategoriya sifatida kirib kelgan “gender” atamasidan foydalaniladi.

Rus tilida esa gender tushunchasini qo‘llash bilan bog‘liq lingvistik muammolar ham kuzatiladi. Garchi rus ilmiy diskursida “gender” termini keng qo‘llanib kelinadigan, ayrim mualliflar tomonidan uning o‘rniga “пол” leksemasidan foydalansih holatlari ham kuzatiladi. Shuningdek, “пол” so‘zi ishtirok etgan so‘z birikmalari ham ilmiy nashrlarda ko‘zga tashlanadi. Misol uchun: *социальный пол, полоролевая дифференциация va boshqalar.*

Bundan ko‘rinib turibdiki, rus tilida gender leksemasining qo‘llanilishi doirasida tilshunos olimlarning qarashlari turlicha bo‘lib, aynan shu masala bilan bog‘liq munozarali jihatlar mavjud. Xususan, S. Ushakinning quyidagi firklari e‘tiborimizni tortdi: *Rus tilida gender atamasi o‘ziga xos tushunchaga ega bo‘lmaganligi sababli, uni “ijtimoiy jins” va “biologik jins” atamalar bilan chegaralash kifoya qiladi* [3: 33].

S. Ushakinning A. Kirilina, M. Krongaus kabi boshqa zamondoshlari fikriga ko‘ra, rus tilshunosligida “gender” terminini qo‘llashdan to‘liq voz kechishning imkoni yo‘q. Buning sababi sifatida M. Krongaus rivojlangan davlatlarda, qolaversa, G‘arb mamlakatlarida “gender” terminidan ommaviy tarzda foydalanish bosqichiga o‘tilgani, hattoki ilmiy bo‘lmagan diskurslarda ham siyosiy va ijtimoiy tenglikni ta‘minlash va ifodalash maqsadida “sex” so‘zini “gender” bilan almashtirish taklif etilayotganini e‘tirof etadi [4: 520].

Turli tizimli tillarda “gender” termini qo‘llanilishi bilan bog‘liq muammolarni o‘rganar ekanmiz, har bir tilda ular o‘ziga xos lisoniy birliklar orqali ifoda etilishining guvohi bo‘ldik. Gender va diskursga oid tadqiqot ishlarini tahlil qilish jarayonida gender tilshunosligining asosiy tushunchalari va iboralari ko‘zga tashlandi. O‘zbek tili leksik sathiga genderologiyaga oid atamalarning ijobiy qabul qilinishi va iste‘mol qilinishi bilan bir qatorda, ayrim holatlarda, aynan shu genderni chetlab o‘tish uchun uning ma‘nosini ifodalab beruvchi so‘zlar va so‘z birikmalari-dan foydalanish holatlari ham tez-tez uchrab turadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sadiqi F. Women, gender and language in Morocco. – Leiden: Brill NV, 2003.
2. Gender kun tartibida. Gender bo‘yicha qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi, “Gender va taraqqiyot” byurosi, 2000.
3. Ergasheva G.I. Ingliz va o‘zbek tillari frazeologizm va paremiyalarida gender aspektining qiyosiy tipologik tadqiqi. – Toshkent, 2011.
4. Abduvaxobova M.A. Ingliz, italyan va o‘zbek folklor matnlarida genderning til vositalarida ifodalanishi. – Toshkent, 2019.
5. Кронгауз М.А. Sexus, или проблема пола в русском языке // Русистика. Славистика. Индоевропеистика, 1996, 510–525.
6. Крилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – Москва: Институт социологии РАН, 1999.

**Obodon ADIZOVA,**

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

## FRANSUZ VA O‘ZBEK TO‘Y MAROSIMLARI TURLARI, MOHIYATI VA XUSUSIYATI

**Annotatsiya.** Maqolada fransuz va o‘zbek folklorshunosligida to‘y marosimlarining mohiyati, mavzuiy turlari va badiiyati, ularning kelib chiqishi, evolutsiyasiga oid ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** folklorshunos, xalq og'zaki ijodi, to'y, mavsumiy, oilaviy marosim, urf-odat, tarixiy etnografiya, an'ana, milliylik, qadriyat.

**Annotation.** The article provides information about the essence, thematic types and artistry of wedding ceremonies in French and Uzbek folklore, their origin and evolution.

**Keywords:** folklorist, folklore, wedding, seasonal, family ritual, custom, historical ethnography, tradition, nationality, value.

**Аннотация.** В статье представлены сведения о сущности, тематических видах и художественности свадебных обрядов во французском и узбекском фольклоре, их происхождении и эволюции.

**Ключевые слова:** фольклорист, фольклор, свадьба, сезонный, семейный обряд, обычай, историческая этнография, традиция, национальность, ценность.

Marosim inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy vaziyatda o'tadigan, o'z ramziy harakatlariga hamda maxsus aytim-qo'shiqlariga ega hayotiy tadbir. Marosim – insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga kirib qolgan xatti-harakatlar majmuyidan iboratdir. Marosimlar an'anaviy xarakter kasb etadi. Har bir marosim o'ziga xos tuzilishga ega. Marosimlar ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida undagi taraqqiyotning muntazam shakli o'zgarishlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib boradi.

Oilaviy marosimlar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, ta'sirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jarayonida namoyon bo'ladigan odob-axloq, mehr-oqibat kabi xislatlar yoshlar ma'naviyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Marosim va bayramlar inson hayotining uzviy qismi hisoblanadi. Har bir kishining shaxsiy hayotida shunday muhim voqealar, bosqichlar mavjudki, ular alohida e'tiborni, xursandchilikni taqozo qiladi. Bu hodisalar o'ziga xos tantana va bayram tarzida nishonlanadi.

Folklorshunoslikda oilaviy-maishiy marosimlar muhim ahamiyatga ega. Chunki insonning asosiy umri oilada kechadi. Insonning tug'ilishini, kamolotining ma'lum bosqichi, yaxshi kunlari, vafotini oilada maxsus marosimlar orqali qayd etish esa o'ziga xos an'anaga aylangan. Bu an'ana barcha xalqlar orasida bor. Inson hayotiga aloqadorligiga ko'ra oilaviy-maishiy marosimlar to'y va motam marosimlari folkloriga bo'linadi.

*To'y marosimi folklori.* To'y dunyoning barcha xalqlariga xos marosimdir. "To'y" atamasi "to'ymoq", "el-yurtga ziyofat bermoq" ma'nolari orqali muayyan kishi hayotidagi muhim burilish nuqtasini anglatadi. Binobarin, to'y ham moddiy, ham ma'naviy oziqlanish marosimidir. Barcha xalqlarda nikoh to'yi marosimlari nishonlanadi, lekin O'rta Osiyo xalqlarida xatna (sunnat) to'yi, beshik to'yi kabilar ham tashkil etilib boriladi. Bu marosimlar turli munosabatlar bilan o'tkazilganligi tufayli ularda ijro etiladigan folklor janrlari ham xilma-xil kasb etadi.

*Beshik to'ylari folklori.* Odatda, beshik to'yi oiladagi birinchi (to'ng'ich) farzand uchun o'tkaziladi va u tantanali qilinadi. Ba'zan oilaning moddiy turmush darajasi bilan bog'liq holda bu tartib o'zgarishi ham mumkin.

*Nikoh to'ylari folklori.* To'y marosimlari sirasida nikoh to'ylari rasm-rusmlarga, irim-sirimlarga boyligi, folklor materialining rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Bunday rang-baranglik hamda ko'tarinki ruh marosimning maqsad va vazifasi bilan, insonning o'z hayotining yangi davriga qadam qo'yishini alohida quvonch orqali nishonlashi bilan bog'liqdir. O'zbek nikoh to'ylarining birinchi bosqichida o'lan va lapar kabi folklor janrlaridan keng foydalaniladi.

Fransiyada ham to'y eng go'zal va unutilmas marosim hisoblanadi.

Fransiyada bitta to'y tashkil qilish ancha qiyin, bu bir bayram kabi o'tkaziladi. Ba'zi hollarda eski fransuz qal'asi ijaraga olinib, marosim bayram sifatida o'sha yerda nishonlanadi. Ba'zan to'y marosimlari avtomobil va poyezdda ham o'tkazilishi mumkin. Bundan tashqari, deyarli barcha fransuz shaharlarida pravoslav cherkovlarida to'y marosimlari o'tkaziladi. Disneylendlarda ham to'y tashkil qilinishi mumkin. Bu to'y juda jozibali va qiziqarli bo'ladi.

Fransiya uslubida bayram va to'y tantana tadbirlarini tashkil etishda, birinchi navbatda, gul asosiy rol o'ynaydi. Fransuzlar gullarni tayyorlashga alohida e'tibor berishadi. Haq bir narsani mehmonlar uchun mahorat bilan tayyorlash lozim. Shu jumladan, har bir to'y bo'lib o'tadigan joy betakror bezatilgan holda bo'lishi kerak. Ayniqsa, joylarni bezashda Eyfel minorasi tasviri ifodasi pushti rangdagi gullar bilan bezaladi. Mehmonlar darhol bayramdagi kabi jam bo'lishadi va yaxshi kayfiyat bilan o'z tilaklarini bildirishadi.

Barcha to'ylar singari Fransuz to'ylarida ham musiq va qo'shiqlar fransuz uslubida bo'lishi shart. Eng yaxshi ijro jonli orkestr, eng yaxshi raqs vals hisoblanadi. Shuningdek, mehmonlarning kutib olinishi o'ziga xos bir an'ana hisoblanadi. Mezbolar zararsiz hazil-mutoyibalar bilan mehmonlarni kutib olishadi hamda tadbir davomida mehmonlarga e'tibor qaratib turishadi.

Fransiyada yangi turmush qurgan yoshlar eski an'ana va urf-odatlarga sodiq qoladilar. Bunda, odatga ko'ra, ikki tutqichli katta idishdan o'zlarining baxtlari uchun suv ichishadi. Fransiyaning to'y an'analarga ko'ra, qarindoshlar va do'stlar uyning derazalari ostida baland ovozda "konsert" uyushtirishadi. Buning uchun ular qoshiq, qozon, qopqoq va boshqa idishlardan foydalanadilar. Tinchlik va nafaqaga chiqish imkoniyatini olish uchun yangi turmush qurganlar mehmonlarga

atirlar va ichimliklar olib kelishlari kerak. Kelin uchun to'y kuni uning hayotidagi eng muhim kunlardan biri sanaladi. To'y an'analar ko'pincha mintaqadan mintaqaga, mamlakatdan mamlakatga, shaharlardan qishloqlarga o'tgan sari bir-biridan farq qiladi. Shu bilan birga, umumiy jihatlar ham saqlanib qolgan. Masalan, odamlar asal oyi o'yinlarining ba'zi eski urf-odatlaridan voz kechishsa-da, ammo yoshlar zamonaviy uslubni qo'llab-quvvatlashadi.

“An'ana”, “urf-odat”, “marosim” kabi tantanalar bi-

lan bog'liq atamalar qotib qolgan tushunchalar emas. Ularning mazmuniga hayot rivojlanishi va turmush ehtiyojlari ta'sir etib turadi. Zero, ijtimoiy hayotning shunday muhim bir qonuniyati borki, u taraqqiyotning muntazam shakldagi o'zgarishlari bilan uzviy bog'liqdir. Binobarin, biror yangi narsa, hodisa vujudga kelganda, ikkinchisi rivojlanadi, uchinchi hayot talabiga javob bermay, o'z o'rnini boshqa shakllarga bo'shatib beradi va hokazo. Jumladan, hayotiy an'ana va bayramlar ham xuddi shunday qonuniyatlarga rioya qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adizova O.I. The exceptional in the works of Van Gennep // International Journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research, Comparative Study of Literature, Comparative Linguistics, Translation Studies, 2023, pp. 121–126, ISSN 2277-3630 (online).

2. Пропп В.Я. Фольклор и действительность. Избранные статьи. – Москва: Наука, 1976. – С. 16.

3. Narzullaeva D.B. History of the translation of the Quran into French // International Conferences, 2023, Vol.1, No.2, pp.116–118). <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1495>

4. Sarimsoqov B. O'zbek folklorining janr sostavi. O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. 1-tom.– Toshkent: Fan, 1988. 82–83-betlar.

#### Tahlil



**Saodat SHAMAQSUDOVA,**  
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy  
kommunikatsiyalar universiteti dotsenti

## ILMIY-OMMABOP ASARLARNING LISONIY VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti maxsus so'zlar, terminlarning tobora keng miqyosda iste'molga kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunda hatto yaqin o'n yil davomida ham fan tili hisoblanmagan kibernetika, EHM sohalari terminlari lug'ati kundalik iste'moldagi so'zlarga aylanmoqda. Bunda turmush tarzimizga fan-texnika yutuqlarining kirib kelishi bilan birga, ilmiy-ommabop nashrlarning keng tarqalayotgani ham muhim omil bo'lmoqda. Xalqning bilimni oshirishda ilmiy-ommabop nashrlarning hissasi katta bo'lmoqda.

Ilmiy-ommabop asar yaratishda muallif yoritayotgan sohasini puxta bilishi va uni ifodalashda tildan to'g'ri foydalana olishi darkor. Bu esa, muallifdan so'z boyligiga ega bo'lish va tilga doir so'z va iboralarni o'z o'rnida ishlata olish mahoratini talab etadi. Ushbu jarayonda muharrirlarning ham xizmat va vazifalari bor. Muharrir ilmiy-ommabop adabiyotning tili sodda, unda bildirilgan fikrlar aniq-tiniq bo'lishini ta'minlaydi. Bayondagi soddalik esa, tor mutaxassislikka oid so'zlar va murakkab hisob-kitoblardan voz kechish orqali amalga oshiriladi. Negaki, asosiy mavzuni yoritish uchun notanish so'zlar, terminlar hamda yangi atamalarni qo'llashda mavjud qoidalarga rioya qilish lozim. Murakkab sintaktik gap tuzilishlari ilmiy-ommabop adabiyotning o'qishli bo'lishiga xalal beradi. Quyida “Fan va turmush” jurnal-

idan olingan matnlar tahlili orqali fikrlarimizni izohlasak. “**Apofis**” sarlavhali ushbu matnning tarkibi shunday:

“Quyoshni tun ichida yo'qotishga chog'lanayotgan yer osti olami zimistonida yashaydigan **vayronagar** ulkan ilon qiyofasidagi Qadimgi Misr ma'budi **Apofis** nomi bilan ataluvchi **asteroid** Arizonadagi (AQSh) Kit Pit **observatoriyasi** olimlari Tolen, Toker va Bernard tomonidan 2004-yilda kashf qilingan. **Apofis orbitasi-**ning hisob-kitoblari shuni ko'rsatadiki, u 2029-yilda yerga o'ta yaqin – qariyb 37500 kilometr masofada uchib o'tishi kerak edi.

Bunday yaqinlashuvda Apofisning yer bilan to'qnashishi ehtimoldan uzoq emas. Turli ma'lumotlarga ko'ra, bu hodisa 2036-yilda ro'y berishi mumkin, to'qnashish ehtimoli **45000 dan 1ni** tashkil etadi.

Portlash kuchi asteroidning tarkibiga, shuningdek, zarb joyi va burchagiga ko'ra u yoki bu darajada o'zgarishi mumkin. Nima bo'lganda ham portlash minglab kvadrat kilometr maydonda ulkan vayronagarchilik keltiradi, lekin “**asteroid qishi**” singari uzoq muddatli ta'sir ko'rsatmaydi. **Hozirgi vaqtda unga asteroid trayektoriyasi va tarkibini aniqlash, shuningdek, zaruriy tadqiqotlar olib borish va uning koordinatini yanada aniq o'lchash uchun radiomayoq o'rnatadigan kosmik apparat yuborish rejalashtirilmoqda.** Eng